

G'AZNACHILIK-DAVLAT MOLIYASINING ENG MUHIM BO'LAGI

Xalilov Bahromjon Bahodirovich

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi.

To'yumurodova Dildora Fozilovna

Osiyo Xalqaro Universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15075121>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik va uning tarkibi to'g'risida, shuningdek ularni ularni amalga oshirish tamoyillari, davlat moliyasidagi asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish bosqichlari to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: g'aznachilik, davlat moliyasi, davlat dasturlari, davlat byudjeti, davlat byudjeti g'azna ijrosi.

Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida davlat moliyasini isloh qilish muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlari sharoitida Davlat byudjetining roli oshadi va undan samarali foydalanish milliy iqtiso-diyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga mamlakat ichida iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida byudjetning kassa ijrosi ikkita usulda, ya'ni bank va g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek, Davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iborat. Globallashtirish jarayonlari va iqtisodiyotni liberallashtirilishi moliyaviy sohada tegishli islohotlar o'tkazishni talab qiladi. Chunki, davlat xarajatlarini qisqartirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi.

«Davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari – kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat byudjetining g'azna ijrosi qonun hujjalardan belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli miliya organi hamda uning Qorag'alpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududlar bo'linmalarini tomonidan amalga oshiriladi».

Avvalambor, g'aznachilik to'g'risida so'z yuritilganda, uning ma'nosini tushuntirishga harakat qilamiz. «G'azna» inglizcha "treasure trove" so'zidan olingan bo'lib, insonlar tomonidan ma'lum bir maqsadlarda yerga ko'milgan oltin va kumushning topilishi hamda bu topilma podsholarga (davlatga) tegishli bo'lganligini anglatadi».

Yuridik ma'lumotnomada ko'rsatilishicha, g'azna har qanday mulk emas, balki faqat pullar, ya'ni oltin va kumush tangalar, valyutalar va chet el valyutalari yoki boshqa qimmatbaho predmetlar, ya'ni qimmatbaho toshlar, marvaridlar, qimmatbaho quyma metallar, ulardan yasalgan buyumlar va buyum parchalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati va Xalqaro valyuta jamg'armasi o'rtaida 2022 yilda imzolangan Memorandumda iqtisodiy islohotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish ishlari bilan birgalikda davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

Ular qatorida respublikada G'aznachilik tizimining yangi avlod tizimining joriy qilinishi eng muhim vazifa, deb e'tirof etildi. G'aznachilik hukumatimizning yaqin kelajakdag'i moliya siyosatining negizini tashkil etadi. Loyihani amalga oshirish ishlari 2022-2026 yillarni qamrab oladi. Mana shu munosabat bilan 2022 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi 144-sonli «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga, asosan, loyihani tayyorlash va amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi qoshida muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil qilindi va u hozirda ish olib bormoqda. Loyihaning asosiy maqsadlari bu davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, Davlat byudjetini tayyorlash jarayonini isloh qilish va Davlat byudjeti ijrosining G'aznachilik shakliga o'tish orqali byudjet mablag'larini samarali sarflanishini ta'minlashdan iboratdir.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish uchun Hukumat tomonidan ajratilgan mablag'lardan tashqari Jahon banki tomonidan – 14,2 mln. dollarlik kredit, Yaponiya hukumati tomonidan – 2,8 mln. dollar, TASIS tomonidan – 2,8 mln. dollar va Islom taraqqiyot banki tomonidan – 0,2 mln. dollarlik grantlar ajratilishi ko'zda tutilgan.

G'aznachilikni joriy etish byudjet daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida byudjet mablag'lari-ning maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Mazkur tizimni joriy etish bilan byudjet bajarilishini kuzatish, boshqaruva qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishdan himoyalash va byudjetni rivojlantirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin.

Davlat byudjetining G'aznachilik tizimi joriy etilishi quyidagi ijobiylariga erishishga imkoniyat beradi:

- davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;

- davlat moliyasining holati to‘g‘risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig‘ish, ishlov berish va tahlil qilish;
- davlat byudjetining daromad va xarajat qismlarini kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o‘tkazish;
- tasdiqlangan byudjet mablag‘lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;
- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o‘z vaqtida va adresli moliyalashtirish bilan byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchilarini tomonidan suiste’mol qilish va noto‘g‘ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish;
- byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag‘larini G‘aznachilik hisob raqamidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar yetkazib beruvchilar hisob raqamiga o‘tkazish orqali pul oqimlari harakatini tezlashtirish o‘z vaqtida to‘lojni amalga oshirish orqali ta’mintonchilarni moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;
- G‘aznachilik tizimining bir pog‘onasidan ikkinchi pog‘onasiga pul mablag‘lari o‘tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag‘larini tezkor harakat qilinishini ta’minalash.

Respublikada davlat moliyasini isloh qilish dasturining maqsadi xarajatlarni samarali boshqarish, pul-kredit intizomini mustahkamlash va ajratmalarni oldingi vazifalarni nazarda tutgan holda taqsimlash, byudjet ijrosi va byudjet nazoratini samarali ta’minalash, uning tiniqligini oshirish va davlat mablag‘larini ishlatganligi uchun hisobotni takomillashtirishga yo‘naltiriladi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun byudjet ijrosi va uni tayyorlashni takomillashtirish, shu jumladan, G‘aznachilik tizimini joriy qilish va uni barcha zaruriy jihozlar, axborot texnologiyalari bilan ta’minalash ishlari amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Qudratova, G. M. (2025). INNOVATION MARKAZLAR: RIVOJLANISHI, TAQQOSLAMA TAHLIL VA KELAJAKDAGI TENDENSIYALAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(7), 98-104.
2. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
3. Bahodirovich, X. B. (2025). XO‘JALIK MUOMALALARI TA’SIRIDA BALANSDA SODIR BO’LADIGAN O’ZGARISHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 356-361.

4. Бахтиёрв, Д., & Алимова, Ш. А. (2025). КОНКУРЕНЦИЯ НА РЫНКЕ: КАК БОРЬБА КОМПАНИЙ ВЛИЯЕТ НА ЦЕНЫ, КАЧЕСТВО И ИННОВАЦИИ. *Modern Science and Research*, 4(2), 463-471.
5. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO'LGA QO'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 193-205.
6. Azimov, B., & Hamidov, A. (2025). THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF MANAGING ORGANIZATIONAL COSTS IN THE ECONOMIC SECURITY SYSTEM. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 356-363.
7. IKROMOV, E. (2025). THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN AND ITS FEATURES. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 240-246.
8. Raxmonqulova, N. O. (2025). SAMARALI RAHBARNING XUSUSIYATLARI, LIDERLIK USULLARI VA ULARNING TASHKILOT MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 29-35.
9. Shadiyev, A. X. (2025). MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 145-150.
10. Supiyevna, B. M. (2025). XUSUSIY TADBIRKORLIKDA MEHNAT MOTIVATSIYASINI OSHIRISH YO'LLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 126-132.
11. Naimova, N. (2025). CLASSIFICATION OF INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES EXISTING APPROACHES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 683-688.
12. Jumayeva, Z. (2025). A NEW THEORY OF ECONOMIC GROWTH: AN EVOLUTIONARY APPROACH. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 869-873.
13. Bobojonova, M. (2025). PRICE LEVELS IN THE GREEN ECONOMY AND THEIR APPLICATION. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 109-117.
14. Jumayeva, Z. (2025). THE ROLE OF TRADE POLICY IN ENSURING THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY: MODERN APPROACHES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 483-488.

15. Ibragimov, A. (2025). PROSPECTIVE WAYS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 137-143.
16. Djurayeva, M. S. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 153-159.
17. Bahodirovich, X. B. (2025). BUXGALTERIYADA QIMMATLI QOG’OZLAR HISOBI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 407-411.
18. Raximova, L. (2025). THE IMPACT OF THE SHADOW ECONOMY ON THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 585-590.
19. Igamova, S. (2025). THE UZBEK ECONOMIC MODEL. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 857-868.
20. Xasanova, G., & Qurbonova, X. (2020). WAYS TO PROMOTE INTEGRATED COLLABORATION OF HIGHER EDUCATION AND VOCATIONAL COLLEGES IN ECONOMIC MODERNIZATION. *Интернаука*, (7-1), 66-69.
21. Soliq huquqi. –T. TDYU, 2017. 283 b.